



XALQ O‘YINLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY, TARBIYALASHNING MA‘NAVIY-ESTETIK JIHATLARINI SHAKLLANTIRISH

Jumaniyazova Z.R.

Nukus innovatsion instituti

Maktabgacha va Boshlangich ta’lim kafedrası, v.b.dotsenti

Tayanch so‘zlar: kreativ, kommunikativ, iste’molchi, intellektual, kompetensiya, taraqqiyot strategiyasi.

Ключевые слова: креатив, коммуникатив, потребитель, интеллектуал, компетентность, стратегия развития.

Key words: kgeativ, kommunikativ, iste’molshi, intellektual, kompetensiua, taraqqiyot strategiyasi.

РЕЗЮМЕ:

Maktabgacha ta’lim tizimini uzviylik asosida isloh qilishda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim va tarbiyasi takomilashtirishda barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq o‘yinlari vositalari sifatiga alohida e’tibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ:

Воспитание детей-это процесс, посредством которого учащиеся получают возможность учиться и воспитывать своих детей в соответствии со своими личными качествами и нравственно-нравственным воспитанием.

SUMMARY:

Parenting is a process through which students are given the opportunity to learn and educate their children in accordance with their personal qualities and moral education.

Mamlakatimizda amalga oshiriladigan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy islohotlarning zarur asoslarini yaratib berishga qaratilgan “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”da maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ularni rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini joriy etish, maktabgacha ta’limga qamrov darajasini hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual, jismoniy va estetik tarbiya vositalari yordamida bolada bilim darajasini ko‘tarish, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog- tarbiyachi va mutaxassislarining malaka darajasini oshirish kabi ustivor vazifalar belgilangan.



Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va barcha yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni qayta takomillashtirish, ta'lim sifatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha vazifalar belgilab berildi. Amaldagi ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud ma'lum bir yo'nalishlar asosida texnologiyalarini takomillashtirish va targ'ib qilish, kundan kunga rivojlanayot ijtimoiy jamiyatda inson ehtiyojlaridan kelib chiqib zamonaviy talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kun talabi bo'lmog'i lozim. Qayd etilganidek, belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagog xodimlarning malaka darajasini yuksaltirish, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon pedagogi kreativlik, hozir javoblik, kommunikativ qobiliyat, sharoitga tez krishuvchan, ijodiy faoliyatga moyil, innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan zamon talablariga javob bera oladigan pedagoglar bo'lib etishishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar ijrosi uzluksiz ta'limning ilk bosqichi sanalgan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglariga katta mas'uliyatlar yuklaydi. Mamlakatimizda zamon talabiga mos pedagoglarni tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalariga sifatli ta'lim-tarbiya berishning samarali yo'llarini targ'ib qila olish mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim standartlari, o'quv dasturlari asosida mantiqiy fikrlashga, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, bir so'z bilan aytganda, ularni maktabga tayyorlashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda, o'sib kelayotgan avlodni ta'lim va tarbiya jarayonining pedagog-tarbiyachi tomonidan kreativlik yondashuvlar asosida tashkillashtirish pedagoglarning kommunikativ mahorati ta'limiy jarayonining samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasining muhim vazifalarini talqin etishda quyidagilarni inobatga olishimiz zarur:

birinchidan, taraqqiyot strategiyasiga xos milliy ta'limni joriy etishni jadal rivojlantirish;

ikkinchidan, ta'lim tizimida mavjud muassasalarining barcha darajalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish;

uchinchidan, iste'molchi va ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatbardosh muhitni joriy qilish;



to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruh bolalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq o'yinlari vositasining nazariy asoslarini yaratish.

Bunday ijobiy natijalarga erishishda ta'lim jarayonida xalq o'yinlari vositalari yordamida bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish yuzasidan pedagoglarni malakasini oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish va bunda xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganib borish, o'rganilgan ilg'or tajribalar umumlantirilib, metodik qo'llanmalar yaratish va o'z faoliyatida xorijiy tajribalarni qo'llash malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berayotgan pedagog maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya jarayonida, bola yoshi va o'zlashtira olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkilatrishi va qulay yo'llarini tanlay olish mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ta'lim faoliyatini loyiha va texnologiyalar asosida tashkilashtirish ma'naviy-estetik jihatlarni shakllantiradi. Albatta, bu jarayonda pedagogdan kasbiy kompetentlik talab qilinadi. Pedagog-tarbiyachi kreativ, ijodkor bo'lishi va o'quv-tarbiya ishlarini samarali bo'lishida o'z hissasini qo'shmog'i lozim.

Pedagog-tarbiyachi tomonidan tarbiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalarning kamolotini ta'minlaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual ma'naviy-axloqiy barkamol yetukligini kafolatlaydi. Bu, albatta, tarbiyachi-pedagogdan intellektual salohiyat hamda ma'naviy yuksaklikni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashni ta'minlash, ularni zamonning to'fonlaridan himoya qilish, tarbiyaning hayot-mamot masalasi ekanini tarbiyachi-pedagoglarga, keng jamoatchilikka qayta-qayta tushuntirish zarur. Pedagoglarning tarbiya va ta'lim sifati, vositalar, metod usullar, bolaning rivojlanish jarayoni ularning psixologik va yosh xususiyatlari bilan izohlanadi, bu esa o'z o'rnida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z samarasini beradi. Shuning bilan birga bu qayd etilganlarning barchasi tarbiya sohasidagi amalga oshirish lozim bo'lgan faoliyatning nihoyatda muhimligi, serqirraligi va dolzarbligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog (tarbiyachi) bolalarda ma'naviy-axloqiy tassarurlarini shakllatirishda, ta'lim mazmuni va mohiyatini chuqur anglashi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlarda uni inobatga olib talqiladiq.

Shunday ekan, eng avvalo yosh avlodning madaniyatini, ma'naviy-axloqiy salohiyatini ko'tarmoq, milliy mafkurasini uyg'otmoq zarur. Zero, o'zini anglagan, millat ma'naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini,



oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas'uliyatini, majburiyatini anglaydi.

Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o'sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarni qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda.

Xalq o'yinlari orqali bolada insonlarga nisbatan ishonishni, nimani qabul qilishni va atrof-dagi dunyoda nimani rad etish kerakligini o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yin ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, qadimdan bolalarga xalq o'yinlarini o'rganishga, boyitishiga e'tibor qaratilib kelingan. Xalq o'yinlarini o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi.

Xalq o'yinlari vositasida maktabgacha ta'lim-tarbiyani takomillashtirish ijtimoiy moslashuv davrida bolada mehnatga bo'lgan ilk tassavurlar orqali shakllanadi.

Xalq o'yinlarida hayotda mavjud holatlarni o'zida aks ettiradi va mazmun-mohiyati ijtimoiy moslashuv davrida omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Xalqning milliy o'yinlari maqsadga qaratilgan, o'ylangan jarayon hisoblanadi. Qoraqalpoq xalq o'yinlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv faoliyati rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xalq o'yinlarini qancha ko'p o'ynasa atrof-olam haqida shuncha ko'p tushunchalarga ega bo'ladilar va ushbu jarayonlarda xalq o'yinlari asosida bolalarda dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati xalq o'yinlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xalq o'yinlari jarayonida bolada muhim bo'lgan kompetensiyalar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqish, shartlari bajarilishini tahlil qilishni o'rganadi. Xalq o'yinlari o'z yo'nalishiga egaligi, xilma-xilligi, hayoti tajribalarga yaqinligi bilan ajralib turadi. Xalq o'yinlari vositasida, texnologik puxta ishlanmalari orqali, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi daragasiga ta'sir ko'rsatish uslublariga tayanadi.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kundan ularning xalq o'yinlari asosan oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda xalq o'yinlari orqali bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida ularning turlari ko'payib



boradi. Xalq o'yinlari orqali maktabgacha ta'lim tashkilotiga oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog'ida hayvonlar, bog' va polizda turli meva va sabzavotlar, har xil kasblar haqida bilim ko'nikmalarga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar xalq o'yinlari vositasida o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rganadi. Xalq o'yinlari jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar alohida harakatlar emas balki, murakkab harakatlar (masalan, ish, xat, rasmlar) ni bajarishni, yozishni amalga oshiradi. O'yin har bir faoliyat singari yillar davomida yangilanib takomillashib boradi.

Maktabgacha bolalik- bu shaxsiyatni shakllantirishning qisqa, ammo muhim davri hisoblanadi. Mazkur davrda bola atrofdagi hayot to'g'risida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, odatlar va to'g'ri hatti-harakat ko'nikmalari rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq o'yinlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash eng muhim faoliyat sifatida katta ahamiyatga ega. Xalq o'yinlari jarayonida bola ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

Xalq o'yinlari - bu kundalik ishlardan farq qiladigan faoliyat sanalib, insoniyat qayta-qayta, unda mavjud bo'lgan o'zi ixtiro qilgan dunyosini yaratadi. Xalq o'yinlari go'zallikni bog'laydigan rishta hisoblanadi. Xalq o'yinlarida maktabgacha yoshdagi bola yashashni o'rganmaydi, balki o'zining haqiqiy, mustaqil hayotida yashaydi. Xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng hissiy va rang-barang olam sanaladi, bunda maktabgacha yoshdagi bolalar xalq o'yinlarining tadqiqotchisi hisoblanadi.

Xalq o'yinlarida bola shaxsiyatining barcha jihatlari shakllanadi uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga tayyorlanadi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning qoraqalpoq xalq o'yinlari vositasida ularning kompetensiyalarini rivojlantirish muhim jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, qoraqalpoq xalq o'yinlari- bu bolalar tomonidan ijodiy aks ettirish shakli bo'lsa, kengaytirilgan shaklda xalq o'yinlari jamoaviy yetakchi faoliyat bo'lib, bola hayotini tashkil etishda katta o'rin egallaydi. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni xalq o'yinlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga nisbatan kompleks chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tasavvurning rivojlanishi jarayonida avvalo, o'zlari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlariga nisbatan ongli tushunchalar



paydo bo‘la boshlaydi, kattalarga bo‘lgan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 -y., 03/19/595/4160-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdaqi PQ-2707-sonli “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 30- sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 1-oktabrdagi PQ-3955-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097 sonli Farmoni.
7. Abdurahmonov A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz. 23-iyul 2016. <https://n.ziyoiz.com>
8. Abdurahmonov O‘. Qoraqalpoq dunyosi. Nukus., 2011. – 110 b.
9. Abduraximova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d.(DSs). - T.: 2020. - 74 b.
10. Abduraximova D.A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq o‘yinlaridan foydalanish // „Bola va zamon” ilmiy-ommabop jurnal. – T.: 2020. - №1. B. 18-21.